

АНЖУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMYIY KONFERENSIYA


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ

2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN MOBIL TELEFON



Martini Koper (1973)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORVIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IJTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



NOYABR
№58

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
9-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-9**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-9**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 58-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Давлат бошқаруви – Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети «Беш муҳим ташаббус» маркази раҳбари)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар – Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

1. Nizomov Bekzod Nizom o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	7
2. Xanaliyev Botir Baxtiyorovich	
TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	9
3. Allonazarov Ollonazar Norbek o'g'li	
MINTAQADA MEHMONXONA XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	12
4. Kodirova Xurshida	
KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	14



ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

RAQAMLI IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Nizomov Bekzod Nizom o'g'li
TDIU Samarqand filiali “Iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalari)” yo'nalishi I- bosqich
talabasi

Annotatsiya: O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Raqamli iqtisodni rivojlantirish borasida innovatsion g'oyalar, innovatsion faollik tendentsiyasi bosqichma-bosqich o'sishi kuzatilmoqda. Raqamlashtirish va innovatsiyalar barqaror rivojlanishning deyarli barcha milliy maqsad va vazifalariga xos harakatdir.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli infratuzilma, innovatsion siyosat, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, investitsiya.

Xususan, 2020 yil oktyabr oyida hukumat raqamli infratuzilmani, elektron hukumatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish maqsadida, milliy IT sektorini yaratish va IT ta'limni kuchaytirishga qaratilgan “Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini qabul qildi. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tadbir etdi.

Respublikamizda bu sa'y-harakatlar ya'ni raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish ishlari 2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”ga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash masalasi joriy etildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati va ilmiy doiralar vakillari hamda xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi. ishlab chiqildi.

Bular quyidagi dasturlardan iborat:

2020 - 2022 yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari;

2020-2022 yillarda tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari;

Shuningdek O'zbekistonda innovatsion siyosatni muvofiqlashtirishni takomillashtirish, innovatsion siyosat bo'yicha tashabbuslarni ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilishda innovatsiyalar bilan bog'liq barcha vazirliklar, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati ishtirokini oshirish orqali innovatsiyalarni boshqarish vositalarini yanada takomillashtirish kabilar tavsiya etildi.

O'zbekistonda 2022 yilda mamlakatda innovatsion rivojlanish muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan “Innovatsion rivojlanish strategiyasi” ishlab chiqilgan. Shuningdek, strategiya va tegishli “yo'l xaritasi” yanada liberallashtirishni qo'llab-quvvatlash, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlarini joriy etish, hududlarning imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardoshlik sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan mexanizmlar yaratildi.

Mamlakatimizda keyingi innovatsion qadamlar 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan maqsadli o'rin oldi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish asosiy “drayver” sifatida belgilangan va uning hajmini kamida 2,5 barobarga oshirish rejalashtirilgan. Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish hisobiga barcha aholi punktlari, ijtimoiy ob'ektlar va magistral yo'llarni keng tolali tarmoqlar bilan qamrab olish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 2026 yil oxirigacha iqtisodiyotning real



sektori, moliya va bank sektorlarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 70 foizgacha oshirish rejalashtirilgan. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati hajmini 5 barobar, eksportini 10 barobarga oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek quyidagi dasturlar orqali O‘zbekistonning iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va ishlab chiqarishda innovatsiyalarni joriy qilish hamda iqtisodiyotda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash maqsadida da investitsiyalar, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etish o‘rini beqiyosdir. Investitsiyalar sababli bugungi kunda mamlakatimizdagi investitsion faoliyat rivojlantirilib, ishlab chiqarilishning turlari kengaytiriladi. Bu borada erishilgan aniq yutuq va muvaffaqiyatlarning keng va atroflicha tahlili, shu asosdagi muhim amaliy xulosalar, kelgusida e‘tibor qaratishimiz lozim bo‘lgan eng dolzarb masalalar orasida mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari va rivojlanish dasturlarini belgilashda, albatta, asosiy e‘tibor xorijiy investitsiyalarga qaratilayotganligini ta‘kidlash kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta‘kidlaganlaridek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz .

Xulosa o‘rnida, raqamli iqtisodiyot va investitsion faoliyat o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat ega ekanligini ta‘kidlab, bu borada Respublikamizda investitsiya muhitini rivojlantirish, investitsiyalarni izlash, faoliyat sub‘ektlarining raqamli transformatsiya sharoitida muvaffaqiyatli harakat qilish imkonini beruvchi yangi vakolatlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. «Xalq so‘zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr № 271-272 (7229-7230) soni.
2. O‘zbekistonning 2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish to‘g‘risida Ixtiyoriy milliy hisoboti (ikkinchi). O‘zbekiston.:2023, 88 bet
3. Jamolov J. J. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2022, yanvarfevral (№ 00057)
4. Xashimov P. Z «Iqtisodiyot va turizm» xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. №2(2) 2021
5. <https://lex.uz/docsA>



TIJORAT BANKLARINING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Xanaliyev Botir Baxtiyorovich

Termiz davlat universitetining
mustaqil tadqiqotchisi
botir88188@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashda xorijiy davlatlar tomonidan qoʻllanilayotgan muvaffaqiyatli tajribalarni tizimli tahlil qilish va umumlashtirishga qaratilgan boʻlib, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Osiyo mintaqalari va boshqa mamlakatlarda bank sektorida maksimal foyda olish uchun qoʻllaniladigan strategiya va usullar haqida batafsil maʼlumot berilgan. Tahlil davomida bank faoliyatini tartibga solish, mahsulot va xizmatlarga innovatsiyalar kiritish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va moliya bozorlarini rivojlantirish masalalariga ham eʼtibor qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Daromad bazasini mustahkamlash, tijorat banklari, xorijiy tajriba, moliyaviy barqarorlik, bank rentabelligi strategiyalari, bank faoliyatini tartibga solish, bank sohasida innovatsiyalar, moliyaviy bozorlar, qiyosiy tahlil.

Bank sektori har bir mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi boʻlib, moliyaviy barqarorlik va oʻsishni taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Tez oʻzgarib borayotgan iqtisodiy muhit va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida tijorat banklari daromad bazasini mustahkamlashda doimiy muammolarga duch kelmoqda. Bank sektorining daromad bazasini mustahkamlash uning barqarorligi va keng koʻlamli moliyaviy xizmatlar koʻrsatish qobiliyatini taʼminlashning asosiy omili hisoblanadi.

Banklarning daromad bazasini mustahkamlashda bank faoliyatini tartibga solish, mahsulot va xizmatlarda innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va moliya bozorlarini rivojlantirish kabi bir qancha muhim jihatlarga eʼtibor qaratish lozim. Xorijiy banklarning daromad bazasini mustahkamlashga qaysi omillar va qarorlar koʻproq ijobiy taʼsir koʻrsatganligi va bu tajribadan mamlakatimizdagi vaziyatni yaxshilash uchun qanday saboqlar olish mumkinligini tahlil qilamiz.

Tadqiqotimizning maqsadi xorijiy davlatlar tomonidan qoʻllaniladigan muvaffaqiyatli strategiya va usullarni chuqurroq tushunish va ularni mamlakatimiz moliyaviy tizimida qoʻllashdir. Biz barqaror va daromadli bank ishiga hissa qoʻshishi mumkin boʻlgan vositalarni ajratib koʻrsatishga intilamiz, bu esa oʻz navbatida iqtisodiy taraqqiyot va milliy hamjamiyat farovonligiga hissa qoʻshadi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash uchun turli usullardan foydalanadilar. Quyida ularning baʼzilar keltirilgan, garchi oʻziga xos yondashuvlar har bir mamlakatning iqtisodiy holati, tartibga solish talablari va bank strategiyasiga qarab farq qilishi mumkin:

1. Moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish (FinTech). Koʻpgina rivojlangan mamlakatlar FinTech kompaniyalari rivojlanishini faol qoʻllab-quvvatlaydi va bank sektorida innovatsiyalarni ragʻbatlantiradi. Bunga fintech startaplari uchun qulay muhit yaratish va xizmatlar koʻrsatish uchun raqamli platformalarni joriy etish kiradi.

2. Elektron va mobil bank xizmatlari orqali rivojlangan mamlakatlar banklari mijozlarga real vaqt rejimida oʻz mablagʻlarini qulay boshqarish va operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi elektron va mobil banking ilovalarini faol ravishda ishlab chiqmoqda.

3. Ayrim mamlakatlarda jismoniy filiallarsiz xizmat koʻrsatadigan virtual banklar yaratilmoqda. Banklar mijozlar bazasini kengaytirish uchun boshqa moliya institutlari va kompaniyalar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda.

4. Chakana va korporativ biznesni rivojlantirish. Bunda banklar turli mijozlar segmentlariga kreditlar va moliyaviy xizmatlar koʻrsatishdan keladigan daromadlarni oshirish uchun chakana va korporativ biznesni rivojlantirmoqda.

5. Qimmatli qogʻozlar va aktivlarni boshqarishga investitsiyalar kiritishda banklar moliyaviy vositalarga faol sarmoya kiritadi va qoʻshimcha daromad keltirishi mumkin boʻlgan aktivlarni boshqarish xizmatlarini taklif qiladi.



6. Banklar ko‘chmas mulk kreditlari berish va tijorat va turar-joy mulklariga sarmoya kiritish orqali ko‘chmas mulk faoliyatini kengaytirishlari mumkin.

7. Risklarni samarali boshqarish daromadlar bazasini mustahkamlash kredit va operatsion risklarni samarali boshqarish bilan bog‘liq.

8. Rivojlangan mamlakatlar banklari moliyaviy regulyatorlar bilan hamkorlik qiladi va bank qonunchiligi va talablariga rioya etilishini nazorat qiladi, bu esa moliyaviy barqarorlik va mijozlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot nafaqat nazariy asosni, balki mamlakatimizda yanada barqaror va daromadli moliya tizimini yaratish uchun xalqaro tajribadan olinishi mumkin bo‘lgan aniq tavsiyalar va saboqlarni ham beradi. Xorijiy mamlakatlarda mavjud bo‘lgan muvaffaqiyatli amaliyot va uslublarni moslashtirish orqali ularni mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatida qo‘llash butun moliya tizimining samaradorligi va barqarorligini oshirishga yordam beradi.

Bank sohasida maksimal foyda olish uchun xorijiy mamlakatlarda qo‘llaniladigan asosiy strategiyalar turlicha. Jumladan:

1. Banklar mijozlarni jalb qilish va daromadni oshirish uchun onlayn-banking va mobil ilovalarni faol rivojlantirish. Bunda AQSh tajribasini ko‘rib chiqaylik. Bank of America mobil ilova orqali bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa mijozlarga real vaqt rejimida o‘z mablag‘larini boshqarish va operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. AQShda banklar onlayn va mobil bankingni rivojlantirishga faol sarmoya kiritmoqda. Masalan, JPMorgan Chase o‘z mijozlariga mobil qurilmalar yordamida kontaktsiz to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Bu jismoniy filiallarga bog‘liqlikni va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday investitsiyalar mijozlar bazasini kengaytirishga va xarajatlarni kamaytirish orqali rentabellikni oshirishga yordam beradi.

2. Bank faoliyatini tartibga solish kabi asosiy jihatlarga ham e‘tibor qaratishimiz lozim. Masalan, Yevropa Ittifoqi banklardan kapital qo‘yilmalarni ko‘paytirishni va tartibga solishning qattiqroq talablariga rioya qilishni talab qiluvchi Bazel III kabi yangi qoidalarni kiritdi. Bu moliyaviy barqarorlikka va mijozlar manfaatlarini himoya qilishga yordam beradi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, kuchli tartibga solish bank tizimini mustahkamlashi mumkin, lekin investitsiyalar va risklarni boshqarishga e‘tiborni talab qiladi.

3. Bundan tashqari, mahsulot va xizmatlardagi innovatsiyalarni tahlil qilishimiz zarur. Osiyo mintaqasida ko‘plab banklar innovatsion mahsulot va xizmatlarni faol ravishda rivojlantirmoqda. Misol uchun, Xitoyda WeChat Pay raqamli hamyonlar va mobil to‘lovlarni taklif qiladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar yosh mijozlarni jalb qilishi va to‘lovlar kabi yangi manbalar orqali daromadni oshirishi mumkin.

4. Shuningdek, mijozlarning sadoqati va uzoq muddatli munosabatlarini ham e‘tiborga olishimiz muhim. Germaniyada banklar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishga va yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishga intiladi. Bu mijozlarning yuqori sodiqligi va depozitni ushlab turishiga olib keladi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli munosabatlar barqaror daromad manbalarini ta‘minlashi mumkin, ammo mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mahsulot sifatiga e‘tibor berishni talab qiladi.

Ushbu strategiyalar va usullar rivojlangan mamlakatlardagi tijorat banklari daromad bazasini mustahkamlashga va tez o‘zgarib turadigan bank muhitida raqobatbardosh bo‘lishga yordam beradi. Amalga oshirilgan tahlillar respublikamiz bank sektorida moliya tizimini takomillashtirish uchun qanday strategiya va yechimlarni qo‘llash mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganar ekanmiz, jahon bank sektori rivojlanishda davom etayotgani va iqtisodiy va texnologik muhitdagi o‘zgarishlarga moslashayotganini aniqladik. Turli mamlakatlarda muhokama qilingan va qo‘llaniladigan barcha strategiyalar va usullar umumiy xususiyatga ega va ularning muvaffaqiyati bir qator omillarga, jumladan, iqtisodiy sharoitlar, tartibga solish va madaniy xususiyatlarga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi milliy bank tizimlari uchun qimmatli saboqlar beradi. Biroq, xorijiy strategiyalarni moslashtirishda o‘ziga xos milliy tartibga solish muhiti va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Muvaffaqiyatli amaliyot va strategiyalarni integratsiyalash, ularni muayyan shart-sharoitlarga moslashtirish va doimiy ravishda o‘z moliyaviy tizimlari ustida ish



olib borish orqali mamlakatlar tijorat banklarining daromad bazasini mustahkamlashi hamda o‘z iqtisodiyotlarida barqarorlik va o‘shni ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Demirgüç-Kunt, A., & Huizinga, H. (2010). Bank activity and funding strategies: The impact on risk and returns. *Journal of Financial Economics*, 98(3), 626-650.
2. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? *Journal of Financial Economics*, 109(1), 146-176.
3. Hasler, M., & Lannoo, K. (2012). State interventions in the banking sector: What are the governance issues? Centre for European Policy Studies.
4. Berger, A. N., & Mester, L. J. (2003). Explaining the dramatic changes in performance of US banks: Technological change, deregulation, and dynamic changes in competition. *Journal of Financial Intermediation*, 12(1), 57-95.
5. Flannery, M. J. (2005). No pain, no gain? Effecting market discipline via “reverse convertible debentures”. *Journal of Financial Intermediation*, 14(2), 107-141.
6. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2007). Finance, inequality and the poor. *Journal of Economic Growth*, 12(1), 27-49.
7. Popov, A., & Udell, G. F. (2012). Cross-border banking and the international transmission of financial distress during the crisis of 2007–2008. European Central Bank, Working Paper No. 1414.
8. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Merrouche, O. (2013). Islamic vs. conventional banking: Business model, efficiency and stability. *Journal of Banking & Finance*, 37(2), 433-447.
9. Cihak, M., Hesse, H., Martin, R., & Sahay, R. (2013). Financial crises and the composition of cross-border lending. *Journal of International Economics*, 89(2), 192-208.
10. Claessens, S., & Kodres, L. (2014). The regulatory responses to the global financial crisis: Some uncomfortable questions. *International Finance*, 17(2), 189-210.
11. Demirgüç-Kunt, A., Detragiache, E., & Gupta, P. (2006). Inside the crisis: An empirical analysis of banking systems in distress. *Journal of International Money and Finance*, 25(5), 702-718.
12. Laeven, L., & Valencia, F. (2012). Systemic banking crises database: An update. *IMF Economic Review*, 60(2), 287-295.



MINTAQADA MEHMONXONA XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Allonazarov Ollonazar Norbek o‘g‘li

Urganch Davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

tel:+998884570011

e-mail: ollonazar.a@urdu.uz

Annotatsiya: Maqolada mintaqada mehmonxona xizmatlari sifatini baholashning o‘ziga xos xususiyatlari, mavzu bo‘yicha xorijiy adabiyotlar tahlili ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: mehmonxona, sifat, servis, mintaq, sayyoh, Xorazm viloyati

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida mehmonxonalar raqobatbardosh bo‘lishi uchun yuqori sifatli xizmatlarni taklif qilishlari lozim bo‘ladi. Mehmonxonalarining sifati turizmdan umumiy qoniqish darajasiga ta’sir qiluvchi komponentlardan biri hisoblanadi. Sayyohlarni kutganlari ro‘yobga chiqqanidan qoniqishadi va bu ko‘rsatkich ularning sodiqligiga ta’sir qiladi. Bundan tashqari mehmonxona xizmatlaridan qoniqqan sayyoh, boshqalarga ham xuddi shu mehmonxonaga tashrib buyurishini aytishi mumkin. Shunday qilib, mehmonxonalar xizmatlari sifatini baholash va zaruriyat hollarda yaxshilash choralarini ko‘rishlari lozim.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida mehmonxona va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni 204 tani tashkil qilib, ulardan 83 ta mehmonxona (2 119 xona 4 372 o‘rin), 97 ta oilaviy mehmon uylari (357 xona, 900 o‘rin), 2 ta mehmon uylari (7 xona 15 o‘rin) 19 ta xostel (350 o‘rin) va boshqa joylashtirish vositalari 3 ta (23 xona 56 o‘rin) tashkil qilgan[1]. Viloyatdagi ba’zi mehmonxonalar xizmat sifatini baholashda, tashrif buyuruvchilar tomonidan shikoyat yozish daftarlaridan keng foydalanilgan. Bunda, eng muhim jihatlardan biri, mehmonxona xizmatlarini sifatini baholashning vositalarini aniqlashtirib olish lozim bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida ushbu vositalar sifatida xalqaro tajribalarni, Xorazm viloyati mehmonxonalaridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish va viloyatdagi mehmonxonalar sifatini baholash uchun muhim bo‘lgan asosiy omillarni aniqlash asosida qayta ishlandi. Bu holatda xalqaro amaliyotdagi mavjud vositalardan avtomatik tarzda foydalanib bo‘lmaydi, mamlakatdagi mavjud vaziyatni hisobga olgan holda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni talab qiladi. Shuning uchun ham anketa-so‘rovnomanini shakllantirilgan savollar, bizning tahlillarimiz bo‘yicha sifat darajasiga ta’sir qiluvchi barcha muhim omillarga taalluqli hisoblanadi. Xorazm viloyatidagi mehmonxonalar sifatini baholash vositalari turistlarning tasavvurlari va kutishlariga asoslanadi. Indeks bahoning ahamiyatini tortish yo‘li bilan yordami bilan aniqlandi. Viloyatdagi mehmonxonalar sifatini baholash uchun 32 savoldan iborat bo‘lgan anketa so‘rovnomasi ishlab chiqildi. Anketada 24 ta savoldan iborat sifat o‘lchovlarini 3 ta guruhga ajratildi: moddiy va tashqi ko‘rinish, mavjudlik va qulaylik, xodimlarni malakasi va yordami. Tahlillar Xiva shahridagi joylashgan “Asia Khiva” mehmonxonasida o‘tkazildi va ularda mehmonxonalar sifatini baholash vositalari sinovdan o‘tkazildi. Natijada, mehmonxona xizmatlari sifatini buzishi mumkin bo‘lgan asosiy kamchiliklar aniqlandi.

Mehmonxonalarda xizmat sifati baholash bo‘yicha ko‘pgina tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Biz avvalo, xizmat sifati uning mazmun mohiyatiga to‘xtaldik. Xorij olimlarildan, Lewis va Bernardlar (2007)ga ko‘ra[2], xizmat sifati - yetkazib berish xizmati darajasi mijozlar kutganiga qanchalik mos kelishining o‘lchovi hisoblanadi. Petrik (2004) fikriga ko‘ra[3], sifat qayta sotib olish niyatining eng yaxshi ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, sifat xulq-atvor niyatlariga ham mo‘tadil, hamda bevosita ta’sir qiladi. Mehmonxona tajribasida iste’molchilarning xizmat sifatiga bo‘lgan umidlarini o‘lchash uchun yana bir indeks Knutson [4] tomonidan ishlab chiqilgan LODGSERV hisoblanadi. LODGSERV mehmonxonalarda xizmat sifatining beshta asosiy aniqlik, ishonchlilik, sezgirlik, ishonch va empatiyalarni oladi.

Agar yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlar mehmonxona sifatini baholashni tavsiflasa, mijozlarning sayohatdan qoniqishini baholash uchun boshqa chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Masalan, Shvetsiyada mijozlarning qoniqish barometri 1989 yilda mamlakatda sotib olingan va iste’mol qilinadigan mahsulot va xizmatlar uchun birinchi milliy mijozlar ehtiyojini qondirish indeksi sifatida yaratilgan. U qoniqishning ikkita asosiy muhim jihatlarni turistning mahsulot yoki xizmat bilan ishlash tajribasini idrok etishi va mijozlarning ushbu ko‘rsatkichga nisbatan



kutishlarini o‘z ichiga oladi. Johnson fikriga ko‘ra[5], qoniqishning oshishi mijozlarning shikoyatlarini kamaytirib, mijozlarning sodiqligini oshiradi.

Yevropa mijozlarni qoniqish indeksi (ECSI) modeli an’anaviy yashirin o‘zgaruvchilarni, idrok etilgan sifat, taxminlar, idrok etilgan qiymat, qoniqish indeksi, sodiqlikni hamda ikkita ixtiyoriy yashirin o‘zgaruvchilarni, tasvir va shikoyatlarni o‘z ichiga oladi [6]. Gonkong mehmonxonalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatganki, sayohatchilar xizmat sifatiga katta umid qilishlari ko‘rsatilgan. Bunda, “Ta’sirchanlik” va “Empatiya” ishbilarmon sayohatchilar uchun dam olish sayohatchilaridan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi. Norvegiyadagi oltita mehmonxonada 369 nafar tashrif buyuruvchilar ishtirokida o‘tkazilgan tadqiqotda o‘ziga xoslik, mehmondo‘stlik, dam olish va tozalash kabi to‘rtta barqaror va mustahkam omilni aniqlaganlar.

Shuningdek, ba’zi tadqiqot ishlarida mijozlarning takliflarni baholashda asosiy rol o‘ynaydigan narx, xizmat sifati kutilmalari va his-tuyg‘ulari qanday bog‘liqligini ko‘rsatgan. Ushbu model 841 mehmonxona mijozlari namunasida sinovdan o‘tkazilgan va natijalar shuni ko‘rsatganki, mijozlarning his-tuyg‘ulari qanchalik kuchli bo‘lsa, ular mahsulotni arzon deb qabul qilishlari va xizmat sifatiga nisbatan taxminiy umidlari shunchalik yuqoriligini ko‘rsatgan. Bundan tashqari, kuzatilgan narx darajasi mijozlarning bashoratli taxminlariga ta’sir qilgan bo‘lsa-da, mahsulot qimmat yoki arzon deb qabul qilinmagan.

Mehmonxona xizmatlari sifatining mijozlarning sodiqligiga ta’sirini aniqlash uchun yana bir tadqiqot o‘tkazilgan. Tadqiqot uchun anketa-so‘rovnomasi qo‘llanilgan va SERVQUAL sodiqlikni baholash bilan birlashtirigan (SERVQUAL metodologiyasi). Tadqiqotda mehmonxona xizmatlarining yuqori sifati mijozlarning sodiqligini oshirishini ko‘rsatgan. Bu shuni anglatadiki, xizmat sifatini yuqori baholagan mijozlar ko‘proq sodiq bo‘lib, mehmonxona xizmatlaridan qayta-qayta foydalanishga va do‘stlariga tavsiya qilishga moyil bo‘lishgan.

Mehmonlarning qoniqish darajasiga mehmonxona joylashuvi ham ta’sir qiladi. Los-Anjelesda 1 yil davomida ro‘yxatdan o‘tgan 220 ta mehmonxonaning 8185 ta onlayn ko‘rib chiqish ma’lumotlaridan foydalangan holda, ob’ektning diqqatga sazovor joylari, aeroportlar, universitetlar va jamoat transporti, shuningdek, yashil maydonlar, korpuslar uchun ochiqligini mehmonlarning mamnunligi uchun muhim omil ekanligini ko‘rsatgan.

Makaoda mehmonxona imidji, xizmat ko‘rsatish sifati, qabul qilingan qiymat, mijozlar ehtiyojini qondirish, mehmonxona obro‘si, mijozlarning majburiyatlari va mijozlarning sodiqligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash uchun empirik tadqiqot o‘tkazilgan. Tadqiqot uchun 442 respondent bilan so‘rov o‘tkazilgan va natijalar mehmonxona imidji mehmonxona obro‘sining oldingi qismi ekanligini ko‘rsatgan. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha boshqa omillar mijozlarning sodiqligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari Lewis, R. C., & Booms, B. H. (2007). The marketing aspects of service quality. *Emerging perspectives on services marketing*, 65(4), 99-107.
2. Petrick, J.F. (2004). The roles of quality, value, and satisfaction in predicting cruise passengers’ behavioral intentions. *Journal of travel research*, 42(4), 397-407. doi: 10.1177/0047287504263037
3. Knutson, B., Stevens, P., Wullaert, C., Patton, M., & Yokoyama, F. (1990). LODGSERV: A service quality index for the lodging industry. *Hospitality Research Journal*, 14(2), 277-284. <https://doi.org/10.1177/109634809001400230>
4. Johnson, M. D., Gustafsson, A., Andreassen, T. W., Lervik, L., & Cha, J. (2001). The evolution and future of national customer satisfaction index models. *Journal of Economic Psychology*, 22, 217-245.
5. Bayol, M., Foye, A., Tellier, C., & Tenenhaus, M. (2000). Use a PLS path modeling to estimate the European customer satisfaction index (ECSI) model. *Statistica Applicata*, 12(3), 361-375.



KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI

Kodirova Xurshida

Toshkent to'qimachilik va
yengil sanoat instituti assistenti
Telefon: +998946568201

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada korxonalarda xodimlarni boshqarishning ishga qabul qilish bosqichidagi ahamiyatli jihatlar, shuningdek xodimlarni boshqarish usullari va ularning samarali faoliyatida korxonaga foydasini oshirish o'rganilgan.

KALIT SO'ZLAR: mehnat resurslari, mehnat resurslarini boshqarish, samaradorlik, suhbat, ishga qabul qilish.

Ishlab chiqarishni boshqarish tizimida mehnat resurslarini boshqarish juda ham murakkabdir. Chunki ishlab chiqarish va boshqarish masalalarining markazida odamlar - ishchilar, mutaxassislar va rahbarlar turadi. Korxonaga maqsadiga erishish va rejalarining bajarilishi faqat shular ishtirokida bo'ladi. Inson omilini hisobga olmaslik, insonga bee'tiborlik iqtisodda kamsamaralikka va ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga olib keladi.

Mehnat resurslarini boshqarishning asosiy maqsadi ishchilar va xodimlarning qobiliyatlarini, yanada jadal va unumli mehnat qilishga qo'zg'atishdir. Inson omiliga e'tibor, odamlarga nisbatan jiddiy, mas'uliyat bilan yondoshish mehnat resurslarini boshqarishning bosh g'oyasidir. Erkin bozor sharoitida boshqaruv vazifalarining murakkablashuvi korxonaga rahbarlariga xodimlarni to'g'ri tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash ishlariga juda katta mas'uliyat bilan yondoshishni talab qiladi.

Xodimlarni boshqarish korxonada band bo'lgan kishilar salohiyatini rivojlantirish va samarali foydalanish ularning mo'tadil faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy shart- sharoit yaratish bo'yicha o'zaro bog'langan tashkiliy-iqtisodiy sotsial tadbirlar tizimi tushuniladi.

Xodimlarni boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan xodimlarni tanlashga bog'liq. Xodimlarni tanlash - bu ikki tomonli jarayondir. Bir tomondan korxonaga da'vogarga ish berish yoki bermaslikni hal qilsa, ikkinchi tomondan da'vogar agar ishga taklif qilinsa, u bu taklifni qabul qilish kerakmi yoki kerak emasligini hal qiladi. Bu jarayonda rahbar quyidagi holatlarga o'z e'tiborini qaratmog'i lozim:

* Ochiq berilgan tavsiyalarga ortiqcha ishonavermaslik, ancha ochiq fikr olish uchun nomzodning sobiq ish beruvchisiga qo'ng'iroq qilish yoki u bilan shaxsan uchrashish lozim.

* Rahbarning mazkur xodimdan ajralayotganiga qanday qarayotganini e'tibor bilan kuzatish kerak.

* Har bir da'vogarning oilaviy xotirjamligini surishtirib ko'rish lozim.

Birinchi navbatda shuni ta'minlamoq kerakki, ishga qabul qilinayotgan odam muzokaralar chog'ida o'zining bo'lajak ishining barcha xususiyatlarini tasavvur qilsin, kelgusida xafa bo'lib yurmasin, bunda biron-bir salbiy hollarga yo'liqmasin. Da'vogarga berilgan baholar va tavsiyalarni tahlil qilganda, shuningdek muzokaralar olib borilganda:

- * uning topshirilayotgan ishni bajara olishiga;
- * zarur bo'lib qolganda kasbiy ma'lumotini oshira bilishiga;
- * texnikaga nisbatan e'tiboriga;
- * fe'l-atvoriga;
- * halolligi, mulohazaliligi, turmushda hozir-nozirligi va to'g'riligiga;
- * tashabbuskorligi, hayotga talabchanligiga;
- * ishga hamda ish kunning davomiyligiga;
- * og'ir sharoitda o'zini tutishiga;
- * salomatligi, tashqi ko'rinishi, vaqtni taqsimlay bilishiga;
- * hunari va bo'sh vaqtlardagi mashg'ulotlariga diqqat qilish lozim.

Har bir da'vogarga u bilan turmushi to'g'risida suhbatlashish va barcha zarur savollarga javob olish uchun yetarli darajada vaqt ajratish kerak.

Bulardan tashqari shuni unutmaslik kerakki, ishga qabul qilinayotgan nomzod topshiriladigan ishni bajarishga yaroqligina bo'lib qolmay, balki korxonaning boshqa xodimlar bilan chiqishib



ketadigan ham bo'lish kerak. Agar u shu keyingi talabga muvofiq kelmasa, odatda yaxshi mutaxassisning ham bahridan o'tish kerak.

Ishga qabul qilingan odam o'z hamkasblariga qo'shilib ketganda o'zini o'z uyidagidek his etishi muhimdir. U o'z burchlarini qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatish, hamda unga yordam berish kerak, uning yangi joyda o'zini tutib olishi uchun vaqt kerakligini anglamoq lozim.

Xodimlarni tanlashda ularning ko'p qirrali xislatlarini aniqlash imkonini beruvchi quyidagi maxsus usullar qo'llaniladi:

anketa ma'lumotlarini tahlil qilish usuli; ruhiy testlash usuli; amaliy ish o'yinlarini o'tkazish usuli; malakaviy testlash usuli; taqrizlarni tekshirish usuli; suhbat o'tkazish usuli; attestatsiyadan o'tkazish usuli; reyting usuli.

Attestatsiya jarayonida xodimlarni malakasiga, uning bajarayotgan ishiga yoki lavozimiga loyiqligiga xolisona baho berilishi kerak. Attestatsiya qilinayotgan xodimning ishiga baho berishda uning reja topshiriqlarini bajarishdagi shaxsiy xizmati, mehnat intizomi, o'z vazifasini sidqi dildan bajarishi kabilar inobatga olinishi zarur. ana shular asosida attestatsiya o'tkazuvchilar ochiq ovoz berish yo'li

bilan quyidagi baholarni berishi mumkin:

- bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- xodim ko'rsatilgan nuqsonlarni keyingi o'tkaziladigan attestatsiyagacha yo'qotsa, bajarayotgan lavozimiga loyiq;
- egallab turgan lavozimiga loyiq emas.

Shunday qilib, xodimlarni boshqarishdan asosiy maqsad ularning faoliyatini korxonada foydasini oshirishga yo'naltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. “Menejment” fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. «Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi» seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 185 b.

2.Yo'ldoshev N.Q., Qozoqov O.S. Menejment. Darslik. - T.: Fan, 2004.

3. Герчикова В.И. Менеджмент. Учебник. – М.; 2003

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000